

“Kelajak soati” darsining 9-11-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:

25-mavzu: “Muqaddas ayol”

Umumiy maqsad: O‘quvchilarga ayol zotining muqaddas ekanligi haqida tushuncha berish, o‘smir yoshlarda ayolga hurmat, ehtirom, minnatdorchilik hissini tarbiyalash. Ona siymosi orqali insonparvarlik, mehr-oqibat, vatanparvarlik kabi ma‘naviy qadriyatlarni mustahkamlash.

Annotatsiya: Mashg‘ulot davomida o‘quvchilarga ayollarning jamiyatdagi o‘rni, uning muqaddasligi, onalik sha‘ni, ma‘naviy va axloqiy fazilatlari haqida bilim beriladi. Shuningdek, tarixiy va adabiy manbalarga asoslangan holda ayollarning hayotimizdagi beqiyos o‘rni yoritiladi. Mashg‘ulot o‘quvchilarda onaga, opa-singilga, ustozlarga nisbatan hurmat, minnatdorchilik va qadrlash tuyg‘ularini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Aniq maqsadlar:

1. O‘quvchilarda onaga, opa-singillarga, ustoz ayollarga hurmat tuyg‘usini shakllantirish;
2. O‘quvchilarning mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
3. Ayollarning, ayniqsa onalarning oiladagi va jamiyatdagi tarbiyaviy o‘rni, mehr-oqibat, sabr-toqat va fidoiylilik kabi fazilatlarining ahamiyatini tushuntirish.

Asosiy g‘oya:

Ayol – bu jamiyatning ma‘naviy tayanchi, kelajak avlodni voyaga yetkazuvchi tarbiyachi, oilaning bosh ustuni va mehr manbaidir. U nafaqat ona sifatida, balki o‘qituvchi, shifokor, rahbar va boshqa ko‘plab sohalarda ham fidoiylilik ko‘rsatadigan, hurmatga sazovor zotdir. Shuning uchun ayolni qadrlash – jamiyatimizning mustahkamligi va kelajagimizning porloq bo‘lishi uchun eng muhim qadriyat hisoblanadi.

Kutiladigan natijalar:

Aqliy va tushunchaviy darajada:

- O‘quvchilar ayol zotining jamiyatdagi o‘rni, onalik burchi va ayollarga xos muqaddas fazilatlari haqida bilimlarga ega bo‘ladilar.
- O‘quvchilar ayolni qadrlash, uning mehr-muruvvati, sabri va fidoiyligini chuqur anglab, unga nisbatan hurmatga asoslangan munosabat shakllantiradilar.

Hissiy va qadriy yondashuvda:

- O‘quvchilarda ayolga nisbatan mehr, samimiy hurmat, minnatdorchilik va e‘tibor tuyg‘ulari uyg‘onadi; ular ayolning oiladagi va jamiyatdagi muqaddasligini chuqur his etadilar.

- O'quvchilar ayolning sabri, mehnati va tarbiyadagi o'rni haqida yaxshiroq tushunib, ularni qadrlashga va hayotlarida ayollarga hurmat bilan munosabatda bo'lishga harakat qiladilar.

Amaliy ko'nikmalarda:

- O'quvchilar hayotda ayollarni hurmat qilishni o'rganadilar va oilada, jamiyatda ayollar bilan yaxshi munosabatda bo'lishga harakat qiladilar.

- O'quvchilar o'zlarining kundalik hayotida onalariga, opa-singillariga va atrofdagilarga mehr va e'tibor ko'rsatishni amalda qo'llashni o'rganadilar.

Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

- O'quvchilar o'z hayotlarida ayolga nisbatan hurmat va ehtirom ko'rsatish, oilada va jamiyatda ayollar bilan munosabatda bo'lish madaniyatini amalda qo'llashni o'rganadilar.

Metapredmet yondashuv:

- **Tarix:** Ayollarning tarixdagi va jamiyatdagi o'rni bo'yicha davra suhbat.
- **Adabiyot:** Ayollarga bag'ishlangan she'r, hikoya, maqollarni tahlil qilish.
- **Musiq:** "Ayol bu" qo'shig'ining ruhiy ta'sirini his qilish.
- **Media savodxonlik:** Sahna ko'rinishlar, videolavhalar, kinofilmlar orqali ayollarga xos bo'lgan ma'naviy va axloqiy fazilatlarni aniqlab, ularni chuqur tahlil qilish.

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Tavsiya etilgan shakl: bilim beruvchi suhbat, musiqiy namoyish, videolavha.

I. KIRISH. Motivatsion qism (10 daqiqa)

O'qituvchi: Assalomu alaykum, aziz o'quvchilar. Hademay 8-mart – ayollar bayramini nishonlaymiz. Hammamiz qadrlil onalarimiz, buvilarimiz, opa-singillarimiz va sinfdoshlarimizni bayram bilan tabriklaymiz. Keyin esa... Keyin oddiy kunlar boshlanadi. Aslida biz ularni har kuni, hamisha hurmat qilishimiz lozim, shunday emasmi?

Shu sababli bugungi darsimiz mavzusi – “Muqaddas ayol” deb belgilangan. Bugun biz ayollarga hurmat va ularni qadrlash haqida gaplashamiz.

Ayollarga hurmat nimadan boshlanadi? Qani, kim aytadi?

(O'quvchilar fikrlari tinglanadi)

O'qituvchi: Barchangizning fikringizda jon bor. Ammo bir haqiqat shuki, ayollarga hurmat ularning haqlarini tan olish, huquqlarini cheklamaslikdan boshlanadi.

Bir savol: agar jamiyatda aholining yarmi o'z salohiyatini to'liq namoyon qila olmasa, bunday jamiyat tez rivojlana oladimi?

(O'quvchilar fikrlari tinglanadi)

O'qituvchi: To'g'ri. Rivojlanish – bu faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar emas. Rivojlanish – bu inson kapitali. Ya'ni bilim, iste'dod, mehnat va imkoniyatlarning to'liq ishga tushishidir. Bu esa jamiyatda turli insonlarning teng imkoniyatlarga ega bo'lishi ortidan keladi. Masalan, nogironligi bor shaxslar, turli millat va irq vakillari va, albatta, ayollar hamda erkaklar uchun teng imkoniyatlar bo'lishi kerak. Bu Konstitutsiyamizda ham belgilab qo'yilgan.

Bu faqat huquq masalasi emas. Bu – butun jamiyat, butun xalq farovonligi masalasidir. Agar qizlar o'z iqtidorini erkin namoyon qilsa, ilm rivojlanadi; agar imkoniyatlar teng bo'lsa – raqobat kuchayadi; agar adolat bo'lsa – jamiyat barqaror bo'ladi. Shuning uchun teng huquq – bu shunchaki shior emas. Bu taraqqiyot mexanizmi sanaladi.

Bugun shu mavzuni gaplashamiz.

II. ASOSIY QISM (30 daqiqa)

O'qituvchi: Bolalar, sizlar “**Shisha shift**” effekti haqida eshitganmisiz?

(O'quvchilar fikrlari tinglanadi)

O'qituvchi: “Shisha shift” ko'rinmaydi, lekin seziladi. U rasmiy taqiqlarda emas, balki qarashlarda yashaydi. Ya'ni qizlar oldida ba'zan ko'rinmas to'siqlar paydo bo'ladi:

- “Bu kasb qizlarga mos emas”
- “Rahbarlik erkaklar ishi”
- “Qiz bola buncha ambitsiyali bo'lmasin”

Bu fikrlar tabiiy haqiqatmi yoki stereotipmi?

(Qisqa muhokama).

O‘qituvchi: Jamiyatdagi eng katta o‘zgarishlar qonunlardan ham oldin ongda boshlanadi. Aynan shuning uchun hozir biz bitta juda qiziq videoni ko‘ramiz. Unda paralimpiya chempioni Asila Mirzayorova qizlar rivoji yo‘lidagi eng keng tarqalgan 5 ta stereotip haqida gapiradi.

Vizual kontent

“Xotin-qizlar bilan bog‘liq stereotiplarga qarshiman!” – Asila Mirzayorova

<https://youtu.be/HinzMN3P688>

O‘qituvchi: Videoda juda tanish fikrlarni eshitdik. Balki kimdir o‘zini ko‘rdi, kimdir atrofidagi vaziyatlarni esladi.

E’tibor bering, stereotiplarning eng xavfli tomoni shundaki – ular ko‘pincha yomon niyat bilan emas, “odatdagi fikr” sifatida yashaydi.

Agar insonning imkoniyati uning jinsiga qarab cheklansa, bu adolat bo‘ladimi?

(O‘quvchilar fikri tinglanadi).

O‘qituvchi: Bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Bu yo‘lda tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda, muhim qonunlar qabul qilinmoqda, yangi mexanizmlar joriy etilmoqda.

Hozir sizlar bilan maxsus videolavhani tomosha qilamiz. Videoda mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va teng imkoniyatlarni ta’minlash yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar, yaratilayotgan sharoitlar va ularning jamiyat hayotiga ta’siri yoritiladi.

Vizual kontent

Ayollari qadrlangan yurt

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/431

O‘qituvchi: Videodan ko‘rinadiki, teng imkoniyatlar yaratish – bu alohida imtiyoz berish emas. Bu jamiyatning mavjud salohiyatdan oqilona foydalanishidir. Davlatimiz rahbari bu masalada aniq siyosatni belgilab berdilar. O‘zbekistonda ayollarning rivojlanishi uchun hamma sharoitlar yaratilishda davom etadi.

Hozir sizlarga namoyish etiladigan videolavhada Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri E’zoza Karimova ta’lim jarayonida qizlar va o‘g‘il bolalar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, ishonch va rag‘bat muhiti haqida fikr bildiradi.

Vizual kontent

“Yoshlikdan maqsadni katta oling!” – E’zoza Karimova

<https://youtu.be/xfrXB9rYx-s>

Video muhokama qilinadi (2 daqiqa)

O‘qituvchi: Hozir bir o‘yin o‘ynaymiz. Qani, faol bo‘lamiz.

O‘YIN: “Bir soniyalik qaror”

Format: Qadriyatga asoslangan mini-situatsiyalar.

Davomiyligi: 3 daqiqa.

Mexanizm: o‘qituvchi vaziyat aytadi, o‘quvchilar tezkor qaror bildiradi.

O‘qituvchi: Men vaziyatlar aytaman. Sizlar har biriga nisbatan faqat bir soniyada qaror qabul qilasiz.

Vaziyatlar:

1. Sinfda qiz bola o‘z fikrini aytdi, kimdir kuldi. Siz nima qilasiz?

- jim qolasiz;
- qo‘llab-quvvatlaysiz;
- mavzuni o‘zgartirasiz;

2. Kimdir “bu ish qizlarga mos emas” dedi. Sizning reaksiyangiz?

- rozi bo‘lasiz;
- e‘tiroz bildirasiz;
- befarq bo‘lasiz;

3. Ayolning yutug‘i kamsitildi. Siz:

- e‘tibor bermaysiz;
- himoya qilasiz;
- mavzudan qochasiz.

O‘qituvchi: Hayotda eng muhim qarorlar ko‘pincha aynan shunday lahzalarda qabul qilinadi. Oldindan rejalashtirilmaydi. Ichki pozitsiya bilan hal qilinadi.

Pauza.

O‘qituvchi: Endi tarixga murojaat qilamiz. Ba’zan jamiyatdagi ayrim noto‘g‘ri qarashlar ayollarning faolligi go‘yoki bugungi zamonga kelib ro‘y beryapti degan tasavvurni shakllantiradi. Aslida esa ayollarga hurmat va ehtirom xalqimiz madaniyatida qadimdan mavjud bo‘lgan. Ayollar nafaqat oilada, balki jamiyat va davlat hayotida ham muhim rol o‘ynagan.

Quyidagi videoda aynan shu jihatlar – ayollarning tarixiy o‘rni, jamiyat rivojiga qo‘shgan hissasi hamda ayollar sharafiga barpo etilgan milliy obidalar haqida hikoya qilinadi.

Vizual kontent

Yurtimizda ayollar nomi bilan bog'liq yodgorliklar

<https://youtu.be/DdFd46QzoRM>

O'qituvchi: Bu lavhalar bizga juda muhim haqiqatni eslatadi: ayol faqat qo'llab-quvvatlovchi emas, faqat kuzatuvchi emas, balki jamiyat taraqqiyotining faol ishtirokchisidir.

Endi esa yana bir muhim timsolga e'tibor qaratamiz.

O'zbekiston tarixida ilk ayol sudyalardan biri bo'lgan Xadicha Sulaymonova nomini ko'pchilik biladi. Bugun u inson nomi bilan yurtimizda bir muhim muassasa faoliyat yuritadi. Hozir Xadicha Sulaymonova nomi bilan ataluvchi Sud ekspertiza markaziga qisqa videosayohat qilamiz.

Vizual kontent

Xadicha Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazidamiz

<https://youtu.be/gOioqTzIwPs>

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, ko'rib turganingizdek Sud ekspertiza markazi adolatni qaror toptirishda muhim ahamiyatga ega, u dalillar orqali inson hayotini qutqarishi, taqdirini o'zgartirib yuborishi mumkin. Shunday muhim muassasaning birinchi ayol sudya nomi bilan atalishida esa ramziy ma'no bor. Ayollar hamisha dalillarga, mayda detallarga e'tiborli bo'lishadi. Shu sababli ham ularning jamiyatdagi, korxonalardagi, mehnat jamoalaridagi o'rni beqiyos.

Biz teng huquq haqida gapiryapmiz. Lekin juda muhim bir jihatni unutmasligimiz kerak. Tenglik bu ayollarga nisbatan hurmatni rad etmaydi. Ayollarni e'zozlash, qadrlash har birimizning burchimiz, chunki tabiatan hayotda ayolga ko'p va mas'uliyatli vazifa yuklatilgan: u hayotni davom ettiruvchi avlodlarni dunyoga keltiradi va tarbiyalaydi.

Shu sababli ayolga munosabat masalasi faqat huquqiy yoki ijtimoiy tushuncha emas. Bu, avvalo, insoniylik masalasidir.

Bir daqiqa o'ylab ko'ring. Siz uchun eng aziz insonlar kim?

Onangiz, buvijoningiz, opangiz yoki singlingiz-a?

Biz ayol deganda mavhum tushunchani emas, aynan shu insonlarni tasavvur qilamiz. Shu sababli ayolga hurmat – bu shunchaki odob emas. Bu tarbiya, madaniyat va vijdon masalasidir.

Jamiyatda ba'zan juda xavfli noto'g'ri qarashlar uchrab turadi:

– ayolning fikrini jiddiy qabul qilmaslik;

- yutug‘ining ahamiyatini pasaytirish;
- imkoniyatini cheklash;
- eng yomoni – unga nisbatan kuch ishlatish.

Kuch ishlatish nimaning belgisi? Kuchlilikmi? Yoki zaiflikmi?

(O‘quvchilar fikri tinglanadi)

O‘qituvchi: Haqiqiy kuch – bu hurmatda. Haqiqiy yetuklik – bu jismonan o‘zlariga nisbatan kuch ishlatishdan o‘zini tiya olishda.

Ayolga nisbatan zo‘ravonlik hech qachon oqlanmaydi. Chunki ayol – hayot beruvchi, tarbiya beruvchidir. Ayolga qo‘l ko‘tarish – bu shunchaki bitta insonga emas, balki butun qadriyatlar tizimiga zarba berishdir.

Jamiyatdagi har bir ayol – kimningdir onasi, kimningdir singlisi, kimningdir eng aziz insoni. Shuning uchun ayolga hurmat – ongli tanlov, qoida emas, insoniy fazilatdir. Va aynan mana shu madaniyat sog‘lom jamiyatni shakllantiradi.

III. YAKUNIY QISM (5 daqiqa)

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar. Bugungi suhbatimiz davomida biz juda muhim haqiqatlar haqida fikr yuritdik: teng huquqlar, imkoniyatlar, stereotiplar haqida gapirdik.

Har biringiz hayotingizda eng aziz ayollarni bilasiz. Bular onangiz, buvijoningiz, opangiz yoki singlingiz. Tasavvur qiling, kelajakdagi jamiyat aynan sizlarning qarashlaringiz asosida shakllanadi.

Kelajakda kimdir rahbar bo‘ladi, tadbirkor, olim, qaror qabul qiluvchi bo‘ladi. O‘sha paytda sizning bugungi fikringiz, bugungi qadriyatingiz juda katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Savol juda oddiy:

Qanday jamiyatda yashashni xohlaysiz?

Imkoniyatlar cheklangan jamiyatdami? Yoki salohiyat qadrlanadigan jamiyatdami?

Hurmat zaiflik deb qaraladigan muhitdami? Yoki hurmat eng katta kuch deb tan olinadigan jamiyatdami?

Ayolni hurmat qilgan jamiyat – barqaror, kuchli va rivojlangan jamiyatdir. Keling, bugungi darsdan faqat ma‘lumot emas, balki ma‘lum pozitsiya bilan chiqaylik.

Hurmatni odatga aylantiraylik. Adolatni mezonga aylantiraylik. Stereotiplarga esa ongli ravishda “yo‘q” deylik.

Shu bilan bugungi darsimiz tugadi. Rahmat sizlarga.